


## IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH


2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning asosiy kapitalini ko‘paytirishga 22 999,0 mlrd. so‘m miqdorida investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur‘ati 102,4 %ni tashkil qildi. Asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarning 6 311,0 mlrd. so‘mi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keldi. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 7 774,1 ming so‘mni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning deyarli yarmidan ko‘p ulushi, ya‘ni 50,7 foizi viloyatning 6 ta hududi hissasiga, jumladan, Olmaliq shahri (15,5 %), Qibray tumani (10,1 %), Bekobod shahri (6,8 %), Zangiota tumani (7,9 %) Quyichirchiq tumani (5,3 %) va Chirchiq shahri (5,1 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so‘m)**




**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'rish sur'atlari (%da)**



Ayrim tumanlarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'rish sur'atlari kuzatildi. Jumladan, o'tgan yilning shu davriga nisbatan Bekobod shahrida – 5,8 m., Bo'ka tumanida – 3,4 m., Oqqo'rg'on tumanida – 2,8 m., Bekobod tumanida – 2,6 m., Yangiyo'l shahrida – 2,2 m., Toshkent tumanida – 2,2 m. o'rish kuzatildi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida  
aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdori  
(ming so‘mda, %da)**




Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan investitsiyalar hajmining yuqori ko‘rsatkichlari Olmaliq shahrida - 26 073,8 ming so‘m, Nurafshon shahrida - 24 827,1 ming so‘m, Bekobod shahrida - 15 514,7 ming so‘m, Ohangaron shahrida - 15 345,8 ming so‘m va Qibray tumanida - 13 471,3 ming so‘mni tashkil etdi. Aksincha, past ko‘rsatkich Bo‘ka tumanida - 2 757,9 ming so‘mni va Bekobod tumanida – 1 463,2 ming so‘mni tashkil etdi.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan %</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>22999,0</b>	<b>102,4</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>3226,2</b>	<b>85,0</b>	<b>14,0</b>
budget mablag'lari	1476,1	69,4	6,4
O'zR Moliya vazirligi huzuridagi suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	116,5	71,4	0,5
Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	622,1	3,7 m.	2,7
Hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	1011,5	75,4	4,4
<b>Markazlashmagan investitsiyalar</b>	<b>19772,8</b>	<b>106,0</b>	<b>86,0</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	9961,7	135,4	43,3
tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlar qarzi mablag'lari	2559,5	111,1	11,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	2686,2	52,1	11,7
boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	92,7	28,0	0,4
aholi mablag'lari	1952,2	104,9	8,5
kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	2520,5	147,6	11,0

2022- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich (jami investitsiyalarning 43,3 %) korxonalarining o'z mablag'lari hisobiga (9 961,7 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

**2022- yil yanvar-sentabr oylari uchun asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari**



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning o'zlashtirilgan hajmi 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 2686,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 52,1 %ni tashkil qildi. Bunda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha yuqori ko'rsatkich Qibray (953,4 mlrd. so'm) va Ohangaron tumanlariga (723,7 mlrd. so'm) to'g'ri keldi. Aksincha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha past natijalar Bo'ka (5,5 mlrd. so'm) va Chinoz tumanlarida (0,1 mlrd. so'm) kuzatildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya  
va kafolatlanmagan kreditlar

(mlrd. so‘m)

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan:		To‘g‘ridan- to‘g‘ri xorijiy investitsiya	Reinvestitsiya	Kafolat- lanmagan kreditlar
		Investitsiya	Kredit			
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>6311,0</b>	<b>2779,0</b>	<b>3532,0</b>	<b>2686,2</b>	<b>85,7</b>	<b>2520,5</b>
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	418,4	90,9	327,5	90,9		153,8
Olmaliq	710,5	39,6	670,9	39,6		669,2
Angren	143,1	73	70,1	62,0		70
Bekobod	48,8	48,8		48,8		
Ohangaron	85,6	22,8	62,8	22,8		62,9
Chirchiq	405,4	202,1	203,3	201,0		84,2
Yangiyo‘l	69,3	49,6	19,7	13,1	36,6	
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo‘rg‘on	0,1		0,1			
Ohangaron	780,3	723,8	56,5	723,7	0,1	5,2
Bekobod	1,1		1,1			
Bo‘stonliq	69,5	31,2	38,3	31,2		33,6
Bo‘ka	8,7	5,5	3,2	5,5		
Quyichirchiq	745,8	28,6	717,2	28,6		716,9
Zangiota	472,4	160,1	312,3	160,1		120,2
Yuqorichirchiq	163,1	36	127,1	36,0		124,4
Qibray	1395,9	961,5	434,4	953,2	13,1	138,2
Parkent	30		30			28,8
Piskent	34,7		34,7			30,8
O‘rtachirchiq	162,5	72,1	90,4	72,1		88,8
Chinoz	28,9	0,1	28,8	0,1	0,1	25,4
Yangiyo‘l	389,5	222,8	166,7	187,0	35,8	33
Toshkent	147,4	10,5	136,9	10,5		135,1

2022- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
texnologik tarkibi

	<i>Jami</i> <i>mlrd. so‘m</i>	<i>foizda</i>	<i>Davlat</i>	<i>foizda</i>	<i>Nodavlat</i>	<i>foizda</i>
<b>Jami, mlrd. so‘m</b>	<b>22998,9</b>	<b>100</b>	<b>2355,6</b>	<b>10,3</b>	<b>20643,3</b>	<b>89,7</b>
<i>shu jumladan: umumiy hajmga nisbatan %da</i>						
qurilish-montaj ishlari	10193,9	44,3	1585,1	6,9	8608,8	37,4
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar	10700,7	46,5	642,0	2,8	10058,7	43,7
boshqa harajatlar	2104,3	9,2	128,5	0,6	1975,8	8,6

2022- yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibining mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlar, yo‘naltirilgan ulushi 46,5 %ni tashkil qilib, umumiy hajmga nisbatan yuqori ulushga ega bo‘ldi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)

(mlrd. so‘m)

	<i>yanvar-sentabr</i>			
	<i>2022- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2021- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
<b>Jami:</b>	<b>22 999,0</b>	<b>100,0</b>	<b>19 540,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha</i>				
qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	2 729,7	11,9	841,1	4,3
tog‘-kon sanoati	3 300,4	14,4	1 282,0	6,6
qayta ishlash sanoati	7 363,1	32,0	3 855,6	19,7

	<i>yanvar-sentabr</i>			
	<i>2022- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>	<i>2021- y.</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan %da</i>
elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	1 414,3	6,1	3 763,0	19,3
suv bilan ta‘minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilish	1 007,6	4,4	432,5	2,2
qurilish	595,8	2,6	1 105,9	5,7
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta‘mirlash	952,7	4,1	611,0	3,1
tashish va saqlash	488,1	2,1	1 047,3	5,4
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	253,6	1,1	104,9	0,5
aloqa va axborotlashtirish	227,2	1,0	51,2	0,3
moliya va sug‘urta faoliyati	81,6	0,4	47,4	0,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq ishlar	262,1	1,1	390,2	2,0
malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyat	390,3	1,7	402,5	2,1
ma‘muriy va qo‘shimcha xizmatlar	311,2	1,4	34,5	0,2
davlat boshqaruvi va mudofaasi; majburiy ijtimoiy ta‘minot	280,5	1,2	352,5	1,8
ta‘lim	746,6	3,2	410,0	2,1
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	268,2	1,2	302,4	1,5
san‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	166,3	0,7	921,6	4,7
uy-joy qurilishi	2 122,6	9,2	2 093,1	10,7
boshqa faoliyat turlari	37,2	0,2	1 491,3	7,6

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar va kreditlarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatida – 7 363,1 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 32,0 %) tashkil etdi. Tog'-kon sanoatida – 3 300,4 mlrd. so'm (14,4 %), uy-joy qurilishida – 2 122,6 mlrd. so'm (9,2 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 729,7 mlrd. so'm (11,9 %), davlat boshqaruvi va mudofaasi majburiy ijtimoiy ta'minotida – 280,5 mlrd. so'm (1,2 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda – 166,3 mlrd. so'm (0,7 %), tashish va saqlashda – 488,1 mlrd. so'm (2,1 %), suv bilan ta'minlanish, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishda – 1007,6 mlrd. so'm (4,4 %), malakaviy, ilmiy va texnikaviy faoliyatda – 390,3 mlrd. so'm (1,7 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 268,2 mlrd. so'm (1,2 %), ta'limda – 746,6 mlrd. so'm (3,2 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 253,6 mlrd. so'm (1,1 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

### Ijtimoiy soha obyektlarini qurilishi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 1130,4 ming kv.m. bo'lgan 4565 ta uy-joy, shundan, qishloq joylarida 909,0 ming kv.m. bo'lgan 3477 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

**Qurilish faoliyati.** 2022- yil yanvar-sentabr oylarida 8447,7 mlrd. so'mlik qurilish-pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 %ni tashkil etdi.

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 227,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan esa 8220,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi mos ravishda 2,7 % va 97,3 % ni tashkil etdi.


#### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti

(umumiy hajmga nisbatan % hisobida)



Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

(2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan, %da )



Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (134,4 %), Toshkent (2,1 m.) va Yangiyo'l (143,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Aksincha, eng past ko'rsatkich Ohangaron (98,4 %), Yuqori Chirchiq (89,6 %), va Qibray (78,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.